Xususiy oliy ta'lim muassasalari menejmentining nazariy jihatlarini va o'ziga xos xususiyatlari.....	856
<b>Karimov Ulug'bek Usmonovich</b>	



Infratuzilma va bozor infratuzilmasi tushunchalarining nazariy tavsifi .....	861
<b>G'aniyev Botir Baxtiyorovich</b>	
Повышение инвестиционной привлекательности – важное условие повышения конкурентоспособности предприятий.....	865
<b>Каримова Дилафруз Садирдин кизи</b>	
Yevropa ittifoqi davlatlari tijorat banklarining soliq to'lovlarini amalga oshirish tartibi .....	870
<b>Komolov Odiljon Sayfidinovich</b>	
Boshqaruvda innovatsiyalarni hisobga olgan holda agrokorxonalarni davlat tomonidan rag'batlantirishning zamonaviy yondashuvlari .....	878
<b>Shaniyazova Zamira</b>	
Практические аспекты применения статистических методов контроля качества на предприятиях.....	883
<b>Усманов Илхом Ачилович, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o'sishning yangi paradigmalarni shakllantirish: nazariy asoslar va amaliy talqinlar.....	891
<b>Alimova Guzal Abdusakimovna</b>	
Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlarining nazariy va metodologik tahlili .....	895
<b>Qo'ziboyev Boxodir Azzamboy o'g'li</b>	
Kutubxonalarda raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes-modellarni ishlab chiqish.....	900
<b>Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li</b>	
To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha xarajatlarni xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish .....	905
<b>X.A.Raximov</b>	
Kameral soliq tekshiruvda smart texnologiyalarini ma'lumotlarini soliq organlarining ma'lumot bazasida shakllanishi.....	910
<b>Ergashev Uyg'un Jabborovich</b>	
Obligatsiya moliya bozori instrumenti sifatida, milliy obligatsiyalar bozori .....	916
<b>Avezov Ibrohim Ilxomovich, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich</b>	
Barqaror rivojlanish doirasida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) ko'rsatkichlarining yashil texnologiyalar innovatsiyasiga ta'sirini baholash.....	921
<b>Meliqo'zиеva Dilrabo Muxitdin qizi</b>	
Yashil iqtisodiyot – barqaror taraqqiyotga olib boruvchi yo'l.....	925
<b>Xalilova Aziza Rustamovna</b>	



# YASHIL IQTISODIYOT – BARQAROR TARAQQIYOTGA OLIB BORUVCHI YO‘L

Xalilova Aziza Rustamovna

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Menejment kafedrası dotsenti

<https://orcid.org/0000-0003-2049-5955>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot tushunchasi, uning mazmuni va ahamiyati hamda barqaror taraqqiyotga yetaklovchi asosiy yo‘nalish sifatidagi o‘rni tahlil etilgan. Yashil iqtisodiyot – bu tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash hamda atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga qaratilgan yondashuvdir. Maqolada jahon tajribasi asosida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlari, mavjud muammolar va istiqbolli imkoniyatlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etishning amaldagi holati hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar chuqur tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** yashil iqtisodiyot, barqaror taraqqiyot, ekologik muvozanat, tabiiy resurslar, atrof-muhit muhofazasi.

**Abstract:** This article analyzes the concept of the green economy, its content, significance, and its role as a key direction leading to sustainable development. The green economy is aimed at ensuring economic growth through the efficient and rational use of natural resources, maintaining ecological balance, and reducing negative environmental impacts. Based on global experience, the article examines mechanisms for developing the green economy, existing challenges, and promising opportunities. Additionally, the current state of implementing the green economy in Uzbekistan and future tasks are analyzed.

**Key words:** green economy, sustainable development, ecological balance, natural resources, environmental protection.

**Аннотация:** В данной статье анализируется понятие «зеленая экономика», её содержание, значимость и роль в качестве основного направления, ведущего к устойчивому развитию. Зеленая экономика направлена на обеспечение экономического роста за счёт эффективного и рационального использования природных ресурсов, поддержания экологического баланса и сокращения негативного воздействия на окружающую среду. На основе мирового опыта рассматриваются механизмы развития зеленой экономики, существующие проблемы и перспективные возможности. Также проанализировано текущее состояние внедрения зеленой экономики в Узбекистане и задачи на будущее.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, устойчивое развитие, экологический баланс, природные ресурсы, охрана окружающей среды.

## KIRISH

Bugungi kunda global miqyosda iqlim o‘zgarishi, ekologik muammolar va tabiiy resurslar cheklanganligi insoniyatni barqaror taraqqiyot tamoyillariga asoslangan iqtisodiy modelga o‘tishga majbur qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi inson faoliyati bilan bog‘liq ekologik yuklamani kamaytirgan holda, iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlashning muqobil yo‘li sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ekspertlarining ta‘kidlashicha, yashil iqtisodiyot – bu “barqaror taraqqiyot va kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qiladigan, karbon chiqindilarini minimallashtirgan, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan iqtisodiyotdir” (1).

O‘zbekiston Respublikasi ham yashil iqtisodiyotga o‘tish borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son<sup>1</sup>li qarori ushbu yo‘nalishda muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur qarorga muvofiq, 2030-yilga qadar O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya iste‘molini 30–35 foizga qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 25–30 foizga yetkazish rejalashtirilgan (2).

Mazkur tadqiqot ishida yashil iqtisodiyot tushunchasi, uning nazariy asoslari, xalqaro tajribalar, O‘zbekistondagi amaliy holat va istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘shish muvozanatini ta‘minlaydigan strategik yondashuvlarni ilmiy asosda o‘rganishga qaratilgan.

1 <https://lex.uz/docs/-4539502>



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi global miqyosda 2008-yildan boshlab keng muhokama qilina boshlandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan tayyorlangan "Towards a Green Economy" (2011) hisobotida yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, yo'nalishlari va iqtisodiy-ijtimoiy afzalliklari chuqur yoritilgan. Ushbu manbada yashil iqtisodiyot resurslarini tejash, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan strategiya sifatida qaraladi.

Ko'plab xorijiy olimlar, jumladan Edward Barbier (2010), Nicholas Stern (2006) va Joseph Stiglitz (2010) yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish orasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilgan. Ular iqtisodiy o'sish bilan birga ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolatni ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi[4].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar, masalan, A. Xudoyberganov, N. Tashkenboyev, G. Xasanova, Z. Mamadjanov va boshqalar yashil iqtisodiyotni joriy etishning milliy xususiyatlarini o'rganib chiqqan. Ularning ilmiy ishlari asosan O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish bilan bog'liq.

Biroq adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotning mintaqaviy va tarmoq kesimida tahlili, shuningdek, amaliy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash borasidagi ilmiy izlanishlar yetarli emas. Shu sababli, ushbu ilmiy ishda yashil iqtisodiyotning milliy modelini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahliliy-uslubiy yondashuv mazkur tadqiqotning asosiy metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga oid xalqaro va milliy darajadagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, strategik dasturlar, davlat siyosati yo'nalishlari, shuningdek, iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlar tizimli tarzda tahlil qilindi. Jumladan:

BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari" (Sustainable Development Goals, SDGs);

UNEP (United Nations Environment Programme) tomonidan e'lon qilingan "Towards a Green Economy" (2011) hisobotlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 – 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son<sup>2</sup>li qarori;

"Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi (2023–2030)" kabi hujjatlar tahlil qilindi.

Ushbu hujjatlar asosida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining huquqiy, institutsional va iqtisodiy asoslari o'rganildi. Tahliliy yondashuv nafaqat nazariy qarashlarni, balki amaliy chora-tadbirlarning samaradorligini baholashga xizmat qildi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining oshirilishi, energiya samaradorligini kuchaytirish choralari, uglerod emissiyasini kamaytirishga qaratilgan davlat dasturlarining natijalari tahlil qilindi.

Solishtirma tahlil (komparativ tahlil) – turli mamlakatlar tajribasini o'zaro qiyoslash orqali ma'lumotlar va amaliyotlar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu usul yordamida O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish borasidagi siyosati va dasturlari quyidagi davlatlar tajribasi bilan taqqoslab tahlil qilindi:

Germaniya yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda Yevropadagi ilg'or davlatlardan biridir. Bu yerda "Energiewende" (energiya burilishi) dasturi doirasida atom va ko'mir energetikasidan voz kechilib, quyosh va shamol kabi qayta tiklanuvchi manbalarga o'tishga ustuvorlik berilgan. Germaniyada "yashil ish o'rinlari" soni yildan yilga ortmoqda, uglerod emissiyasi esa sezilarli darajada kamaymoqda.

Janubiy Koreya "Yashil o'sish" (Green Growth) strategiyasini 2008-yilda milliy rivojlanish modeli sifatida qabul qilgan. Hukumat tomonidan yashil texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash, ekologik transport va energiya tejoychi infratuzilmani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan[5]. Ushbu modelda davlat investitsiyalari va innovatsion yondashuvlar markaziy o'rinda turadi.

Xitoy yashil iqtisodiyot bo'yicha dunyodagi eng yirik investitsiya qiluvchi davlatlardan biridir. So'nggi yillarda u "ekologik tsivilizatsiya" konsepsiyasini milliy strategiya darajasiga ko'tardi. Qayta tiklanuvchi energiyaga investitsiyalar hajmi bo'yicha Xitoy dunyoda yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, "uglerod neytralligi"ga erishish maqsadida 2060-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiyalar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston bu davlatlar tajribasidan farqli ravishda yashil iqtisodiyotga o'tishda hali boshlang'ich bosqichda. Biroq 2023–2030-yillarga mo'ljallangan strategik hujjatlar, qayta tiklanuvchi energiyaga (ayniqsa, quyosh va shamol elektr stansiyalariga) yo'naltirilgan sarmoyalar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik – milliy modelning shakllanayotganini ko'rsatadi.

2 <https://lex.uz/docs/-4539502>



Solishtirma tahlil asosida O'zbekiston uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: qonunchilik asoslarini kuchaytirish (masalan, uglerod boji, yashil soliqlar); innovatsion va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish (yashil obligatsiyalar, subsidiyalar); davlat-xususiy sheriklik asosida ekologik loyihalarni kengaytirish; yashil iqtisodiyot bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotga o'tish bugungi kunda nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki barqaror iqtisodiy o'sishning yangi modelini shakllantirish vositasi sifatida ham qaralmoqda. O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar quyidagi asosiy natijalarni ko'rsatmoqda:

So'nggi yillarda O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2023-yilda Buxoro, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirildi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 10 % dan ortig'i qayta tiklanuvchi manbalardan olingan, bu esa 2018-yilga nisbatan 2 baravarga oshganini ko'rsatadi.

Bu boradagi yirik tashabbuslardan biri – 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy ulushini 25–30 % ga yetkazish maqsadida ishlab chiqilgan "Yashil energetika strategiyasi" hisoblanadi. Bu tashabbuslar nafaqat energiya xavfsizligini ta'minlaydi, balki atmosfera ifloslanishini ham sezilarli darajada kamaytiradi [6].

Yashil iqtisodiyotga asoslangan loyihalar ichki investitsiyalar hajmini oshirish bilan birga, xorijiy investorlar uchun ham jozibador muhit yaratmoqda. Xususan, 2021–2024-yillar davomida O'zbekistonda ekologik yo'naltirilgan infratuzilma va qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha loyihalarga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 3 milliard AQSh dollaridan oshdi. Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki yashil iqtisodiyot loyihalariga faol ko'maklashmoqda.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi doirasida chiqindilarni qayta ishlash tizimi ham takomillashtirilmoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda maishiy chiqindilarning 23 % qayta ishlangani qayd etilgan, bu 2020-yildagi 15 % ko'rsatkichdan ancha yuqori. Ammo bu ko'rsatkichlar hanuzgacha rivojlangan davlatlar darajasiga yetmagan. Masalan, Germaniyada bu ko'rsatkich 60–65 % atrofida. Bu esa chiqindilarni saralash, qayta ishlash va ikkilamchi resurslardan foydalanish bo'yicha amaliy choralarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi [7].

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tishda sezilarli qadamlar tashlagan bo'lsa-da, bu yo'ldagi rivojlanish hali ham bosqichma-bosqich amalga oshmoqda. Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoy tajribalari asosida aniqlanishicha, yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyati ko'p jihatdan:

- institutsional bazaning mustahkamligi,
- innovatsiyalarni joriy etish darajasi,
- ijtimoiy ong va bilim darajasiga,
- hamda hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy-texnik qo'llab-quvvatlashga bog'liq.

O'zbekistonda esa bu yo'nalishda siyosiy iroda kuchli bo'lsa-da, institutsional va texnologik bazani yanada mustahkamlash, aholining ekologik madaniyatini oshirish va xususiy sektorni faol jalb etish zarurati mavjud (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlarining dinamikasi (2018–2023-yillar)

Ko'rsatkichlar	2018	2020	2022	2023
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	4.5	6.8	10.1	12.3
Qayta ishlangan maishiy chiqindilar (%)	11.0	15.2	20.4	23.0
Investitsiyalar hajmi (mlrd \$)	0.5	1.2	2.3	3.1

Yashil iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy model sifatida nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlashga, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka ham xizmat qiladi. Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish borasida ijobiy siljishlar mavjud bo'lsa-da, bu yo'ldagi taraqqiyot bir qator tizimli muammolar bilan to'qnash kelmoqda.

Strategik hujjatlarda belgilangan maqsadlarning amalga oshirilishi ko'pincha texnologik imkoniyatlar, moliyaviy resurslar va kadrlar salohiyatining yetishmasligi tufayli sust kechmoqda. Misol uchun, quyosh va shamol energiyasi loyihalari ishga tushirilgan bo'lsa-da, ularning umumiy energiya balansidagi ulushi hali ham



past – 2023-yilda 12,3 % atrofida bo'lgan. Bu raqamlar mamlakatdagi energetika sektorining yuqori darajada uglerodga bog'langanligini saqlab qolayotganini anglatadi [8].

Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun quyidagi omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi:

Germaniyada "Energiewende" dasturi orqali 2022-yilga kelib, elektr energiyasining 40 % dan ortig'i qayta tiklanuvchi manbalardan ishlab chiqarilgan.

Janubiy Koreyada "Green Growth" strategiyasi asosida ekologik toza transport vositalari soni keskin oshdi, atrof-muhitga zararli chiqindilar kamaydi.

Xitoyda yashil texnologiyalarga qaratilgan davlat sarmoyasi natijasida bu soha 10 milliondan ortiq ish o'рни yaratdi (IEA, 2021).

O'zbekistonda esa bu tajribalarni adaptatsiya qilish uchun hali ham qo'shimcha infratuzilma, qonunchilikdagi mustahkamlovchi mexanizmlar va biznes muhitga yengilliklar zarur. Masalan, "yashil obligatsiyalar" tizimi yoki uglerod boji (carbon tax) kabi iqtisodiy rag'batlantiruvchi mexanizmlar amalda yo'q.

Yashil iqtisodiyotni muvaffaqiyatli joriy etishda aholining ekologik madaniyati va ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda bu borada ayrim ijobiy qadamlar tashlanmoqda: ekologik fanlar umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlari dasturlariga kiritilmoqda. Ammo ekologik innovatsiyalarni yaratadigan mutaxassislar – muhandislar, texnologlar, ekologlar soni va sifati hanuz yetarli emas.

Yashil iqtisodiyot loyihalarining asosiy to'siqlaridan biri – ularning yuqori boshlang'ich qiymati. Masalan, quyosh panellari, chiqindilarni qayta ishlash zavodlari, past chiqindili texnologiyalar katta moliyaviy mablag' talab qiladi. Aholi va xususiy sektor uchun yetarli imtiyozlar yoki subsidiyalar mavjud emas. Shuningdek, yashil moliyalashtirish vositalarining (masalan, yashil kreditlar, grantlar) amaliyotda keng joriy qilinmasligi rivojlanishni sekinlashtiradi.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi global miqyosda barqaror taraqqiyotning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyotga o'tish borasida muhim siyosiy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, bir qator strategik tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik madaniyatni oshirish yo'nalishlarida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda.

Biroq yashil iqtisodiyotga to'laqonli o'tish jarayoni hali ham turli to'siqlar – texnologik, moliyaviy va institutsional – bilan bog'liq. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish, ekologik innovatsiyalarni joriy etish hamda aholi ongini oshirish zarurati dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois, mamlakat barqaror rivojlanish yo'lida davom etishi uchun yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etishda integratsiyalashgan yondashuv talab etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyot bugungi kunda barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas elementi sifatida global miqyosda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu zamonaviy yo'nalishni faol tarzda qo'llab-quvvatlab, o'tish jarayonini izchil va tizimli asosda amalga oshirmoqda. Davlat rahbariyati tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar bu boradagi siyosiy iroda va strategik ustuvorlikni namoyon etadi.

So'nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni samarali boshqarish va ekologik ongni oshirish sohalarida sezilarli ilg'orlik kuzatilmoqda. Quyosh va shamol energetikasiga oid yirik loyihalarning amalga oshirilishi hamda chiqindilarni qayta ishlash ko'rsatkichlarining yildan-yilga ortib borayotgani ekologik barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Kelgusi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, huquqiy-me'yoriy asoslarni yanada takomillashtirish orqali sarmoya jalb qilishni rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish lozim. Xususan, yashil investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiya dasturlari joriy etilishi kutilmoqda. Shuningdek, karbon chiqindilarini tartibga soluvchi iqtisodiy vositalarning (karbon solig'i, yashil obligatsiyalar) rivojlanishi sohada barqaror moliyalashtirish tizimini shakllantiradi.

Ikkinchidan, texnologik modernizatsiya va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirish rejalashtirilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligi yo'nalishlarida yangi texnologiyalarni tatbiq etish uchun xorijiy tajriba va investitsiyalarni jalb etishga alohida e'tibor qaratiladi. Germaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlarning muvaffaqiyatli tajribalari asosida O'zbekistonning ilmiy-texnik siyosati izchil rivojlanadi.

Uchinchidan, aholining ekologik savodxonligini oshirish va yashil qadriyatlarni jamiyat ongiga chuqur singdirish muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilanadi. Ta'lim muassasalarida yashil iqtisodiyot, ekologiya va



barqaror rivojlanish fanlarini joriy etish, aholiga qaratilgan axborot-kampaniyalar, seminar va treninglar orqali ekologik madaniyatni mustahkamlash istiqbolli choralar sirasiga kiradi.

To'rtinchidan, xususiy sektorni faol jalb etish orqali yashil iqtisodiyotning innovatsion komponentini kuchaytirish maqsad qilingan. Bu yo'nalishda davlat-xususiy sheriklik asosidagi inkubatsiya markazlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlov tizimlari va biznes-inkubatorlarning tashkil etilishi bilan yangi startaplar va ish o'rinlari paydo bo'ladi.

Beshinchidan, amalga oshirilayotgan loyihalarning monitoringi va natijadorlik tahlili asosida ochiq ma'lumotlar platformalarining yo'lga qo'yilishi, jamiyatda ishonchni mustahkamlab, davlat siyosatining shaffofligini ta'minlaydi. Bu esa yashil tashabbuslarning xalqaro reytinglardagi holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyot sohasida ilg'or mamlakatlar safidan munosib o'rin egallashiga zamin yaratadi. Resurslardan oqilona foydalanish, ilm-fan va texnologiyalarga asoslangan yondashuv, fuqarolarning ekologik mas'uliyati bilan uyg'unlashganda mamlakatda barqaror va farovon yashil kelajakni ta'minlash imkoniyati sezilarli darajada ortadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sachs, J. D. (2015). The Age of Sustainable Development. Columbia University Press. – Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotiga doir muhim manba.
2. UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. United Nations Environment Programme. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi va uni rivojlantirish yo'llari bo'yicha xalqaro hisobot.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni (2023). Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi (2023–2030). Tashqi siyosat va milliy strategiyalar rasmiy hujjati. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga oid davlat siyosati va strategiyasi.
4. World Bank (2020). Green Growth and Sustainable Development. World Bank Publications. Yashil iqtisodiyot va barqaror iqtisodiy o'sish bo'yicha xalqaro tahlil va tavsiyalar.
5. Stern, N. (2007). The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press. – Iqlim o'zgarishi va uning iqtisodiyotga ta'siri, yashil iqtisodiyotning roli.
6. GIZ (2019). Green Economy in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit. – O'zbekistondagi yashil iqtisodiyot imkoniyatlari va muammolari tahlili.
7. IEA (2021). Renewables 2021: Analysis and Forecast to 2026. International Energy Agency. – Qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi global va milliy rivojlanish ko'rsatkichlari.
8. Kuznetsova, O. V., & Tuktarova, E. V. (2020). "Green economy as a tool for sustainable development." Journal of Environmental Management and Tourism, 11(6), 1323-1332. – Yashil iqtisodiyot va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida maqola.
9. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va Atruf-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (2022). Yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha hisobot. – O'zbekistonning yashil iqtisodiyot sohasidagi amalga oshirilgan ishlari va natijalari.
10. IPCC (2022). Climate Change 2022: Impacts, Adaptation and Vulnerability. Intergovernmental Panel on Climate Change. – Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlarini kamaytirish bo'yicha ilmiy xulosalar.
11. Самиева, Г. Т., & Аликулов, Х. Т. (2023). НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН И ПЕРЕХОД В «ЗЕЛЕНУЮ ЭКОНОМИКУ». Экономика и социум, (11 (114)-1), 994-998.
12. Aliqulov, H. (2023). YASHIL IQTISODIYOT. KELAJAK IQTISODIYOTING ASOSI. Nashrlar, 474-477.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>